



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUDJET HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD. Rashidov Farrux Ismoilovich

O'zbekiston Respublikasi bank moliya
akademiyasi "Qayta tayyorlash va
malaka oshirish" fakulteti dekani

Xalilov Dilshod O'ktam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank
moliya akademiyasi tinglovchisi

Tel: 90 674-08-98

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi budjet tizimi ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada budjet tizimi funksiyalari nazoratini avtomatlashtirish bir necha bosqichni o'z ichiga olagan va bosqichlarni izchil amalga oshirish pul resurslari harakatini nazorat qilish imkoniyatini tug'diruvchi tizimni yaratish imkoniyatlari tahlili, O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida»gi qonuni va nazoratini tashkil etish va faoliyati mexanizmiga doir iboralar, tushunchalar va tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: budget, budget nazorati, budget taqchilligi, dotatsiya, davlat nazorati, daromadlar va xarajatar smetasi.

Abstract: This article describes the current issues and scientific and methodological aspects of the organization of the process of accounting and control of the budget system in the Republic of Uzbekistan. Also, in the article, the automation of the control of the functions of the budget system includes several stages, and the consistent implementation of the stages includes an analysis of the possibilities of creating a system that makes it possible to control the movement of monetary resources, the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Budget System" and expressions, concepts and analyzes of the mechanism of organization and activity of control are given.

Key words: budget, budgetary control, budget deficit, subsidies, state control, income and expenditure estimates.

Аннотация: В данной статье рассмотрены актуальные вопросы и научно-методические аспекты организации процесса учета и контроля бюджетной системы в Республике Узбекистан. Также в статье автоматизация контроля функций бюджетной системы включает в себя несколько этапов, а последовательное выполнение этапов включает в себя анализ возможностей создания системы, позволяющей контролировать движение денежных средств. Закон Республики Узбекистан «О бюджетной системе» и даны выражения, понятия и анализы механизма организации и деятельности контроля.

Ключевые слова: бюджет, бюджетный контроль, бюджетный дефицит, субсидия, государственный контроль, смета доходов и расходов.

KIRISH



Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi integratsiyalashuvi va globallashuvi kuchayib borayotgan bir davrda davlat sektorida budget tizimi budgetlari ijrosini ta'minlashda budget hisobi va nazoratini xalqaro standartlarga mos holda yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Harakatlar strategiyasidagi oliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida barcha sohalarga qaratilayotgan e'tibor singari davlat moliyasini boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanim innovatsion usullarni joriy qilish orqali sohani yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budgetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan vositalardan foydalangan holda moliya siyosatini yanada takomillashtirish"³⁹ vazifalari qo'yilgan.

2022-yildan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida: Hisob palatasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlariga birinchi navbatda budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish, jumladan: budget tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o'tkazish, budget tizimi budgetlaridan to'lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash, davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga riosa etilishini nazorat qilish, davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o'rGANISH" vazifalari yuklatildi.

"Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Hisob palatasi hamda Bosh prokuraturaning Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari negizida Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etildi.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birlashtirilgan "Elektron nazoratchi-taftishchi" dasturiy majmuasini quyidagi bosqichlarda:

birinchi bosqichda — 2022-yil 1-sentabrqa qadar vazirlik va idoralar bilan real vaqt rejimida axborot almashinushi orqali budget qonunchiliginizni buzish xavfini tahlil qilish maqsadida Moliya vazirligining moliyaviy nazorat ma'lumotlari bazasini ishga tushirish;

ikkinci bosqichda — 2023-yil 1-yanvarga qadar davlat moliyaviy nazorati obyekting muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish (mavzuli nazorat) modulini yaratish" belgilandi.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» PF4947-son Farmoni., //www.lex.uz



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Budget munosabatlarini tartibga solish va ularni nazoratini amalga oshirish bugungi kunda barcha xorijiy davlatlar qatori mamlakatimizning ham asosiy masalasi hisoblanadi. Mazkur masalalar bo'yicha bir qator iqtisodchi olimlarimiz o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirib o'tishgan. Quyida bir qator tadqiqotchilarning budget, budget munosabatlari va budgetlararo hisob-kitoblar borasidagi fikrlarini tahlil qilamiz.

I.N.Qo'ziyev, SH.V.G'aniyev, A.S.Ramazonovlarning ta'kidlashicha: Budget hisobi va nazorati davlat budgeti, davlat maqsadli va boshqa budgetdan tashqari jamg'armalari budgeti ijrosi bo'yicha yuritiladi va budgetlar ijrosi holati haqida ma'lumotlarni shakllanishini ta'minlaydi.

- 1 • Budget hisobini bevosita va bilvosta tartibga soluvchi qonunlar va qonuniy xujjatlar
- 2 • Budget hisobinin tashkil etishni bazaviy tamoyillarini umumlashtiruvchi me'yoriy xujjatlar
- 3 • Budget hisobini alohida obyektlarini yuritish mexanizmi, xususiyatlarini aks ettiruvchi xujjatlar
- 4 • Budget hisobini tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini mujassamlashtirgan ishchi xujjatlar

1-chizma. Byudjet hisobi va nazoratining me'yoriy-huquqiy asoslari tizimi⁴⁰

Budget hisobi va nazorati – budget tizimi budgetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir.

Vahobov A.V., Malikov T.S. larning tahlil qilishicha Budget jarayoni budgetni rejalashtirishdan boshlanadi. Budgetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budgetlar va budgetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliyl dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizmi bo'g'irlari o'rtaida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash proporsiyalarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

⁴⁰ I.N.Qo'ziyev, SH.V.G'aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.



Ba'zi bir mamlakatlarda budget loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i (rahbari)ning kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy yo'nalishlari bo'yicha chiqishidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan AQSh da prezidenti amerika xalqiga Budgetnoma bilan murojaat qilib, unda pul- moliya siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi budget yili va navbatdagi to'rt yil uchun federal budget daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi⁴¹.

M. Ostonaqulovning tahlil qilishicha "Budget tizimining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan budget daromadlarining xarajatlarga teng bo'lishi ta'minlanishi kerak. Budgetlarni tuzish va tasdiqlash jarayonida budgetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar paydo bo'ladi. Shuningdek, tasdiqlangan budgetlarning bajarilishi jarayonida ham budgetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar paydo bo'lishi mumkin. Demak, budgetlararo hisob-kitoblar ikki turga bo'linadi. Budgetlarni tuzish va tasdiqlash mobaynida, moddiy-texnika bazalari bir xil bo'Imaganligi uchun, budgetlarning ayrimlarida daromadlari rejalashtirilayotgan xarajatlaridan ortiqcha bo'lsa, boshqalarida esa rejalashtirilayotgan xarajatlari summasi rejalashtirilayotgan budget daromadlaridan oshib kctishi kuzatiladi.

Davlat budgeti ijrosi jarayonida alohida budgetlar bilan hisob-kitob munosabatlari vujudga kelishi mumkin. Bunday o'zaro hisob-kitoblar vujudga kelishi asosida har bir ma'muriy-hududiy bo'linmaning budgeti daromadlar va xarajatlar balansi tarzida tashkil topishi yotadi. Barcha xarajatlar rejalashtirilgan daromadlar bilan qoplanadi. Shuning uchun, budget tasdiqlangandan so'ng, qo'shimcha xarajatlar yuklansa, ulami ta'minlash uchun mablag' ham berilishi kerak bo'ladi. Daromad beruvchi manbalar kamayganda ulami qoplash uchun mablag'lar olinishi kerak bo'ladi. Tasdiqlangan budjetda ko'zda tutilmagan daromadlaming manbalari paydo bo'lganda qo'shimcha hisoblangan daromad summasi yuqori budgetga berilishi kerak bo'ladi⁴²".

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O'zbekistonda budget tizimi, budgetlararo hisobotlar va ularning nazoratini joriy etishda amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Budgetni ijro etishning eng muhim vazifasi ikkiyoqlama harakterga ega bo'lib, u bir tomondan, soliqlar va boshqa to'lovlarining yoppasiga hamda har bir manbalar bo'yicha to'liq va o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashni, ikkinchi tomondan esa, budget tasdiqlangan yil uchun shu moliyaviy yil davomida budgetda tasdiqlangan summalar chegarasida barcha tadbirlarni moliyalashtirilishni taqozo etadi.

Budget ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, soliqli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

⁴¹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya.-T: "Sharq", 2010y., 470-bet.

⁴² M . Ostonaqulov. Budget hisobi. - T.: «Talqin», 2008. -4 2 4 bet.



Budjet hisobi va nazoratini yuritishdan maqsad foydalanuvchilarga budjet ijrosi jarayoni bo'yicha to'liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlarni shakllantirib berishdan iborat.

Budjet ijrosi jarayonida nazoratning maqsadi – budjet ijrosini amalga oshirish va natijalarini shakllantirishni haqqoniyligini aniqlash va tahliliy axborotlarni shakllantirishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:


1. Budjet daromadlari va xarajatlarining rejalashtirilishi hamda uning ma'lumotlari haqqoniyligini aniqlash;
2. Budjet ijrosi jarayonida muomalalarni to'liq va to'g'ri hujjatlashtirilishini aniqlash;
3. Davlat maqsadli jamg'armalari budgeti daromadlari va harajtlarini rejalashtirish hamda ushbu ma'lumotlarning haqqoniyligini aniqlash
4. Budjet ijrosi jarayonida buxgalteriya hisob hisobvaraqlarini yuritilish holati va haraktini to'g'rilingini aniqlash;
5. Budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirilishi va natijalarni shakllantirilishi to'g'rilingini tekshirish;
6. Mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirilishini tekshirish;
7. Budjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini to'g'ri umumlashtirilishi va hisobtlarni haqqoniyligini tekshirish;
8. Tekshiruv natijalarini umumlashtirish.

Nazorat - funksiyasi orqali budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish mulklarni saqlanishi, tayinlanishi bo'yicha sarflanishi tizimi yo'lga qo'yiladi.

Moliyaviy nazorat – bu davlat tomonidan tashkil etilgan kuzatish tizimi bo'lib unga davlat, mustaqil va jamoa tuzilmalari kiradi. Ular davlat hokimiyati organlari, korxona va tashkilotlar faoliyati samaradorligini, saloxiyati zahiralarini, davlat budgeti xarajatlarini, qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilishadi. Moliyaviy nazorat tizimiga: davlat nazorati, idoraviy nazorat, ichki xo'jalik nazorati, jamoaviy nazorat va mustaqil auditorlik nazorati kiradi.

Davlat nazorati - tuzilmasi bir muncha murakkab bo'lib, Davlat nazoratining subyektlari moliyaviy nazorat o'tkazish huquqiga ega Hisob palatasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Markaziy bank va boshqalar kiradi. Nazorat obyektlari bo'lib multk shaklidan qat'iy nazar barcha korxona va tashkilotlar hisoblanadi.

Idoraviy nazorat – barcha vazirlik va qo'mitalar boshqaruv tuzilmasiga kiruvchi nazorat va taftish bo'limlari yoki ichki audit boshqarmalari hisoblanadi. Bu nazorat bo'g'inining obyektlariga barcha davlat korxona va tashkilotlari yoki 50 foizdan ortiq aksiyalari davlatga tegishshli aksiyadorlik jamiyatlari kiradi. Mustaqil audit – mustaqil auditorlik firmalari va nodavlat sektori korxonalari hisoblanadi.



2-chizma. O'zbekiston Respublikasida budjet hisobi va nazoratini yuritilishi chizmasi⁴³

1. Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budgetlar ijrosining hisobi – Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligining g'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan olib boriladi;

2. Davlat maqsadli jamg'armalar (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijga tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasi, pensiya jamg'armasi va boshqalar), shuningdek boshqa budgetdan tashqari jamg'armalar ijrosining hisobi – tegishli budgetdan tashqari jamg'armalar tomonidan olib boriladi;

3. Budjet tashkilotlarda daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining hisobi bo'yicha - budjet tashkilotlari (2-chizma) tomonidan olib boriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

respublika darajasida — O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining, davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining va respublika budgetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budgetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budgetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Budjet mablag'larini sarflanishini to'g'ri rejalashtirish, undan samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatib bu budjet tizimi hamda jarayonini qayta ko'rib chiqish ahamiyatini oshiradi. Avvalambor, budjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, “Budjet jarayoni- davlat budgetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon⁴⁴”. Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning

⁴³ I.N.Qo'ziyev, SH.V.G'aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-sen. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-sen



budget huquqlari bilan belgilanadi hamda budget jarayonining mazmunini belgilashda budgetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat budgetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi.

Budget tashkilotlari joriy yilga moliyaviy natijalarni mablag'larni shakllanishi manbalari bo'yicha shakllantiradi va yakuniy moliyaviy natijani aniqlaydi. Budget hisobini tashkil etish moliya organlari va budget tashkilotlarini rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Davlat budget tasdiqlangandan so'ng davlat va mahalliy soliqlar va daromadlar to'g'risida, ma'muriy-xududiy bo'linishdagi, korxonalar, tashkilotlar va xo'jalik birlashmalarining bo'ysunishidagi o'zgarishlar, turli xildagi bo'ysunishidagi qurilish obyektlari o'rtasida kapital qo'yilmalar limitlarini qaytadan taqsimlanishdagi o'zgarishlar bo'yicha qabul qilingan yangi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari qabul qilinishi natijasida alohida olingan budgetlarga o'zgarishlar kiritilgan hollarda Budget ijrosi jarayonida Budgetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, iqtisodiyot va moliya boshqarmalari va iqtisodiyot va moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining iqtisodiyot va moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining iqtisodiyot va moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida:

- quyi turuvchi moliya organlari tomonidan budget to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi ustidan;

- ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

- budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan;

- aksiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

- aksiz to'lanadigan ayrim turdag'i tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan;

- budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan budget hisobotini tuzishning to'g'riliqi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat obyekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbazarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi.

Moliyaviy nazorat obyekti mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy huquqbazarliklarga doir materiallar sudsiga yoki tegishli vakolatli davlat organlariga topshiriladi.

Xulosa

Davlat budgetini ijrosini nazorat qilish bu albatta ajratilayotgan pul mablag'larining samarali va joy joyiga borishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Nazorat organlari faoliyatini tubdan o'zgartirish, ularni malakasini yetarli darajada oshirish orqali bu yo'lda yana ham mustahkam qadamlar tashlay olish mumkin.



Budjet hisobotlari va uni nazorat qilish mexanizmlarini qo'llash yanada yuqori sifatlari moliyaviy hisobotlarni tuzishga shuningdek davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, budjet mablag'larining samaradorligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, davlat budjeti mablag'larini aniq maqsadlar va rejalar yo'lida sarf qilish va uni yetarlichcha tahlil qilish bu albatta mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini berishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2013 y. №52-I-son./www.lex.uz
2. M . Ostonaqulov. Budjet hisobi. - T.: «Talqin», 2008. -4 2 4 bet.
3. I.N.Qo'ziyev, SH.V.G'aniyev, A.S.Ramazonov. Budjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya.-T: "Sharq", 2010y., 470-bet.
5. Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p.2